

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

**Xorazm Xalq Sovet  
Respublikasida nazorat organlar faoliyati  
(1920-1924) yillar.**

O‘zbekiston Milliy universitet Tarix fakulteti  
O‘zbekistonning eng yangi tarix kafedrasи  
mustaqil tadqiqotchisi

**Nazirov Maxmudjon Xasanjon**

**Ilmiy rahbar: T.f.d., professor. A.A.Yermetov**

**Annotatsiya** Turkistonda Sovet xukumati o‘rnatilgandan keyin qisqa vaqt ichida Xiva xonligida ham xon hokimiyati tugatilib Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil etildi va uning konsitutsiyasi ham e‘lon qilindi. Bu jarayonda Xorazmda markaziy ijroiya qo‘mita va nazorat organlari tuzilib, ular Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tugatilgunga qadar o‘z faoliyatlarini olib bordi. O‘z navbatida ushbu tashkilot Xorazm hududlarida bolsheviklar hokimiyatini mustahkamlashda asosiy ro’lni o’ynagan edi.

**Kalit so‘z:** Nozirlik, Harbiy inqilobiy kengash, MIQ, Inspeksiya, Ishchi-dehqon, Rais, Sovet, Xorazm, Qurultoy, Bolshevik, Kotib, Ichki ishlar, Pochta, Xiva.

**Аннотация**

Вскоре после установления советской власти в Туркестане Хивинское ханство было упразднено и создана Хорезмская Народная Советская Республика и объявлена ее конституция. В ходе этого процесса в Хорезме были сформированы Центральный исполнительный комитет и органы контроля, которые осуществляли свою деятельность вплоть до распада Хорезмской Народной Советской Республики. В свою очередь, эта организация сыграла ключевую роль в укреплении большевистской власти в Хорезмской области.

Ключевые слова: Инспекция, Военно-революционный совет, МИК, Инспекция, Рабоче-Крестьянская, Председатель, Совет, Хорезм, Съезд, Большевик, Секретарь, Внутренние дела, Почтамт, Хива.

## Abstract

Shortly after the establishment of the Soviet government in Turkestan, the Khiva Khanate was abolished and the People's Soviet Republic of Khorezm was established and its constitution was announced. In this process, the central executive committee and control bodies were formed in Khorezm, and they carried out their activities until the dissolution of the Khorezm People's Soviet Republic. In turn, this organization played a key role in strengthening the Bolshevik power in Khorezm regions.

**Keywords:** Inspectorate, Military Revolutionary Council, MIQ, Inspection, Worker-Peasant, Chairman, Soviet, Khorezm, Congress, Bolshevik, Secretary, Internal Affairs, Post Office, Khiva.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

1917-yili oktyabr to‘ntarishi natijasida o‘lkada sovet xokimiyati o‘rnatilganidan so‘ng, bolsheviklar tomonidan bir qator xukumat organlari tashkil etila boshladi. Turli sohalarni boshqarish uchun tuzilgan sovet tashkilotlari o‘lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda asosiy rolni o‘ynadi. 1920-yil 1-fevralda Xivaning oxirgi xoni taxtdan tushirilib, hujjatga imzo chekkandan keyin, 2-fevral kuni inqilob g’alabasi e’lon qilindi va inqilobiq qo’mita tuzildi. Ana shu tariqa Xorazmda yangicha hayot va boshqarish tartibi e’lon qilindi. 1920-yil 2-aprelda esa turkman urug’ boshliqlari Qo’shmuhammad, G’ulomalixon, Baxshi va boshqalar ishtiroqida Gelbart kotibligida, Olloqulov tarjimonligida majlis o’tkazilib, birinchi navbatda o’zaro nizolarga chek qo’yish masalasi muhokama qilindi<sup>1</sup>. Chunki Xorazm vohasi xalqlari o’rtasidagi munosabatlarni to’g’ri yo’lga qo’yishda asosiy masala ilgarigi Xiva xonligi xududidagi o’zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq millat mehnatkashlari o’rtasida o’zaro ishonchni mustahkamlash, qo’shni Amudaryo viloyati bilan ularning o’zaro hamkorligini kuchaytirish, umuman Xorazm mehnatkashlari bilan Turkiston Respublikalari mehnatkashlari o’rtasidagi do’stlikni yuqori darajaga ko’tarishdan iborat edi. 1920-yil 9-aprelda Vaqtli hukumatning majlisi chaqirilib, Nozirlar sho’rosi tuzildi. Polvonniyoz hoji Yusunov (Davlat nazorati), Bekjon Rahmonberganov – Xalq madaniyati va maorifi noziri, Bobooxun Salimov adliya noziri, Jumaniyoz Sultonmurodov vaqtli hokimiyat raisi, Odomoxun Ortiqov muovini va boshqalar<sup>2</sup>. 1920-yil 27-aprelda Xiva shahrida Butun Xorazm vakillarining birinchi qurultoyi chaqirilib (buning ishtirokchilari turli millatga mansub kishilar edi) barcha millat mehnatkashlarining manfaatiga mos keladigan masalalarni muhokama qildilar va bu borada zarur qarorlar qabul qildilar. Ko’p yillardan buyon davlat nomi «Xiva» shaklida ishlatilib kelingan bo’lsa, endi Xorazm nomi bu qurultoyda qayta tiklandi, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tuzilgani e’lon qilindi va uning Konstitutsiyasi qabul qilindi. Qurultoya Xorazm Xalq Sovet Respublikasi kengashining Markaziy Ijroiya Qo’mitasi tuzilib, uning ichida Markaziy Ijroiya Qo’mitasi Prezidiumi va Sovet xalq nozirligi tashkil etildi va Xorazm XSR ning Nozirlar Sovetini sayladilar<sup>3</sup>. 8 ta nozirlik tashkil qilinib, 5 nafar kommunist, bir

<sup>1</sup> O‘zR MDA, 72-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 1-varaq

<sup>2</sup> O‘zR MDA, 72-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 2-varaq

<sup>3</sup> O‘zR MDA, 71-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 1-varaq

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2**

yosh Xivalik va 2 nafar partiyasiz kiritildi<sup>4</sup>. 1920-yil 28-aprelda esa XXSR e'lon qilindi.

1920-yil 30-aprelda Xorazm millatidan va dinidan qat'iy nazar barcha mehnatkashlarning respublikasidir deb e'lon qilindi. Shunday qilib 1920-yil aprel oyida Xorazmda mustaqil Xalq Respublikasi e'lon qilinib, barcha xalqlar bilan birodarlikda yashashga katta umid bog'landi<sup>5</sup>. Endigina siyosiy xaritada paydo bo'lgan mustaqil Xorazm respublikasiga qo'shni xalqlar yordam qo'lini cho'zdilar. Qo'shni Jumhuriyatlar 700 ming kishi hayot kechirayotgan Xorazm vohasini mahsulotlar va texnika uskunalar bilan ta'minlashni o'z zimmasiga oldi va qaytib olmaslik sharti bilan 20 million so'm ajratdi. Turkiston komissiyasining qarori bilan 1920-yil aprel – may oylarida yana 150 million so'm yordam berildi. Joylarda yangi tashkilotlar tashkil qilishga kirishdilar<sup>6</sup>. Tezda yangi zamon maktablari, bolalar bog'chasi, qariyalar uyi, internat-maktablar vujudga keltirildi. Turkkomissiya esa Xorazmga tezlik bilan birinchi navbatda 3 do'xtir, 8 feldsher, bir tish do'xtiri, bir akusherka, uch kasalxonani ta'minlashga etadigan dori-darmonlar 10 o'qituvchi, o'qish qurollari, 50 ming pud kerosin, 50 ming pud neft, idish-asboblar yubordi<sup>7</sup>. 1921-yil may oyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasining 2-qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Nozirlar Kengashlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 60 kishidan iborat yangi tarkibi, ular orasidan Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Kengash prezidiumi saylandi. Nozirlar kengashi Xorazm Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Sovet xalq nozirligining ijro etuvchi, ma'muriy va qonun chiqaruvchi organi bo'lib, quyidagi Nozirliklardan iborat edi: 1. Tashqi ishlari. 2. Harbiy ishlari; 3.Ichki ishlari (sog'liqni saqlash, pochta, telegraf bo'limlari bilan<sup>8</sup>) 4.Adliya; 5.Ta'lim; 6. Moliya; 7. Qishloq xo'jaligi;. savdo sanoati va mehnat va ijtimoiy ta'minot bo'limlaridan iborat edi<sup>9</sup>. O'sha yili Nozirlar kengashi buyrug'i bilan 6 kishidan iborat davlat nazorat. Organi tashkil etilib, va

<sup>4</sup> Polvonov N. Xorazmda ijtimiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi (1900-1924). Toshkent: Akademik nashr, 2011. - 186 b.

<sup>5</sup> Axangarov M. Xorazm tarixi materiallari. -Urganch, 1964. -182 b.

<sup>6</sup> O'zR MDA, 72-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 3-varaq

<sup>7</sup> Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. -Тошкент: Шарқ. 2000;

<sup>8</sup> O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 1-varaq.

<sup>9</sup> O'zR MDA, 71-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 4-varaq.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

uning asosiy vazifasi etib sobiq xon mulkini tasarruf etishni nazorat qilish edi<sup>10</sup>. Davlat nazoratining oliv organi sifatida davlat nazorati o‘z e’tiborini xo‘jalik va ma’muriy faoliyatning eng yirik tarmoqlariga qaratdi, masalan:

- a) davlatning iqtisodiy mablag‘larini sezilarli darajada sarflaydigan muassasalar;
- b) davlat daromadlari va soliqlari hamda moliya organlari faoliyati., g‘aznachilik tomonidan xususiy shaxslar bilan katta miqdorda tuziladigan shartnomalar,
- c) davlat muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari rahbarlarining xizmat va ma’muriy faoliyati: Davlat nazorati tomonidan ajratilgan mablag‘larning to‘g‘ri va maqsadli sarflanishi ustidan nazorat olib borildi, xalq mablag‘larining qay tarzda sarflanishi qat’iy nazoratga olindi, barcha sarflangan xalq mablag‘lari Nozirlikka to‘g‘ri hisobot berishni qati'y nazorat qilib turilgan. 1923-yil oktabrda davlat nazorati ishchi-dehqon inspeksiyasining xalq nozirligiga aylantirildi. Davlat apparatini takomillashtirishda Sovet hokimiyatining asosiy organi Ishchi-dehqon inspeksiyasi nozirligi edi.

Uning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatildi: 1.Nazorat organlarni faoliyati o‘rganish, mavjud boshqaruvi organlari faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash, boshqaruvi usullarini, ish yuritish va hisobotlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat organlari tuzilmasini o‘zgartirish rejalarini ishlab chiqish; 2. Davlat, ma’muriy va xo‘jalik boshqaruvi organlarini o‘z apparatini takomillashtirish uchun har tomonlama rag‘batlantirish; 3. Byudjetni sarf-harajatlarni nazorat qilish; 4. Ma’muriy-xo‘jalik organlarining rahbar va xodimlarining ishini baholash va tekshirish; 5. Jinoyatlarning sabablarini o‘rganish va, davlat organlarining noto‘g‘ri boshqaruvi ustida qaror va qonun ishlab chiqib ularga tegishlik jazolarni qo’llash. 6. Davlat apparatini takomillashtirish; 7. Xodimlardan shikoyat va arizalarni qabul qilish<sup>11</sup>. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun Ishchi-dehqon inspeksiyasi nozirligiga quyidagi huquqlar berildi:

<sup>10</sup> O‘zR MDA, 79-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 1-varaq.

<sup>11</sup> O‘zR MDA, 79-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 1-varaq.

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2**

1. Markaziy, hududiy va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida to'liq va qisman audit va tekshirish so'rovlarini o'tkazish.
2. Oliy organlar tomonidan markazda va joylarda tashkil etiladigan komissiyalar va majlislarda maslahat ovozi bilan ishtirok etish huquqi.
3. Tekshirilayotgan muassasalar harakatlarining aniq noqonuniy buyruqlarini to'xtatib turish<sup>12</sup>. Shtat jadvaliga ko'ra, Ishchi-dehqon inspeksiyasi nozirligi quyidagi tuzilishga ega edi; Hay'at, Instruktor va audit bo'limi; Ariza va shikoyatlar byurosi; va umumiy bo'limni tashkil qilar edi..

Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 1923-yil 7-iyuldaggi buyrug'i bilan mehnatni muhofaza qilish boshqarmasi tashkil etildi<sup>13</sup>. Nozirlar Kengashiga qurultoy tomonidan tayinlangan rais boshchilik qilib, qurultoy va Markaziy saylov komissiyasi ishiga mas'ul bo'lgan, Sovet xalq nozirligining siyosiy va texnik raisi ham tashqi ishlar vaziri lavozimini egallagan. Nozirlar kengashining vakolatiga quyidagilar kiritilgan edi: Xorazm Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan chiqarilgan barcha farmon va tadbirlarni tegishli davlat apparati orqali amalga oshirish; barcha Nozirliklarning ishini umumiylashtirish; nozirliklar faoliyatida yuzaga keladigan fundamental xarakterdagi masalalarni hal etish.

Xorazm Markaziy Ijroiya Qo'mitasining umumiylashtirish qoidalari va farmonlari doirasida Nozirlilik va alohida bo'limalar uchun nizomlar ishlab chiqarish huquqiga ega edi. Nozirlilik sho'rosi qoshida Davlat plan komissiyasi bo'lib, u Nozirlar Kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida faoliyat olib borardi.<sup>14</sup> Xalq Nozirlari Kengashi barcha Nozirliklardan o'z ishlari haqida ma'lumot talab qilish huquqiga va kelgusidagi ish rejalarini ko'rib chiqib tasdiqlar edi. Shtat jadvaliga ko'ra, Xalq Nozirlari Kengashi quyidagi tuzilmaga ega edi: Nozirlar kengashining raisi, Rais o'rinnbosari, Kotib<sup>15</sup>. Xorazm xalq sovet respublikasi tashkil etilib xon hokimiyati ag'darilib tashlangandan keyin inqilobiy harbiy kengashi ham tuzildi. U Inqilobiy hokimiyatning vaqtinchalik markaziy organi sifatida faoliyat yuritib, XXSR Inqilobiy

<sup>12</sup> O'zR MDA, 79-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 1-varaq.

<sup>13</sup> O'zR MDA, 71-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 2-varaq.

<sup>14</sup> O'zR MDA, 71-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 2-varaq

<sup>15</sup> O'zR MDA, 71-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 3-varaq.

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2**

Harbiy Kengashi harbiy idoraning bo'linmalari, direksiyalari, muassasa va muassasalarini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish, birlashtirish, respublika qo'shinlarining siyosiy ta'limi va mamlakat mudofaasi masalalarini ishlab chiqish uchun tashkil etilgan. Inqilobiy Harbiy Kengash XXSRning oliv harbiy organi bo'lib, Barcha qurolli kuchlar, shuningdek, orqa va frontda joylashgan muassasalar, idolar va harbiy muassasalar Xorazm Xalq Sovet Nozirligi Inqilobiy Harbiy Kengashining yurisdiktsiyasida edi<sup>16</sup>. Inqilobiy Harbiy Kengash tomonidan kiritilgan milliy ahamiyatga ega bo'lган barcha ishlab chiqilgan masalalar Xorazm Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 1921-yil 26-maydagi qarori bilan XXSR inqilobiy harbiy kengashining doimiy tarkibi 5 kishidan iborat etib tayinlandi.

Inqilobiy Harbiy Kengash yuridik bo'linmalarga quyidagicha ko'rsatmalar berar edi: qonun loyihalari, yo'rinqomalar, nizomlar, harbiy qo'mondonlik va boshqaruva organlari, muassasalarining nizomlari va shtatlarini ko'rib chiqish, mahalliy harbiy qo'mondonlikni tashkil etish, harbiy mutaxassislarini taqsimlash, umumiylar harbiy tayyorgarlik loyihasini ishlab chiqishni, tashkillashtirish iborat edi. Barcha bo'lim va muassasalar bilan aloqada bo'lib, harbiy ro'yxatga olish ishlari olib borilar va Xorazm Qizil Armiyasining siyosiy ta'lim va targ'ibot-ma'rifiy ishlarini tashkil etish haqida tashviqotlar olib borar, shuningdek, safarbarlik rejalarini tuzish va taqsimlash, respublika qurolli kuchlarining shakllanishini nazorat qilar edi. XXSR markaziy ijroiya qo'mitasining 1921-yil 26-maydagi qarori bilan XXSR inqilobiy harbiy kengashining doimiy tarkibi 5 kishidan iborat etib tayinlandi.

1. Harbiy Nozir, shuningdek, rais.
2. XXSR qo'shinlari qo'mondoni, shuningdek, rais o'rinnbosari.
3. Harbiy.
4. Siyosiy bo'lim boshlig'i.
5. Respublika qo'shinlari ta'minoti boshlig'idan iborat edi<sup>17</sup>. 1923-yil 17-oktabrda IV Xorazm xalq deputatlari Kengashlari qurultoyi bo'lib o'tdi<sup>18</sup>. Qurultoyda

<sup>16</sup> O'zR MDA, 1505-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 1-varaq.

<sup>17</sup> O'zR MDA, 1505-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 2-varaq.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

Sovet Ittifoqining aralashuvi bilan Xorazm Xalq Sovet Respublikasini Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirishga qaror qildi. Lekin oradan hech qancha vaqt o'tmasdan Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 1924-yil 23-noyabrdagi 251-sonli qarori bilan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi barcha nazorat organlari nozirliklari faoliyati tugatildi<sup>19</sup>. Qolaversa Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi ham tugatilib yangi tuzilgan O'zbekiston Sotsialistik Respublikasi tarkibiga qo'shib yuboriladi.

Shuni takidlash lozimki Xorazm Xalq Sovet respublikasida tuzilgan nazorat organlari ko`plab tarmoqlarni keng qamrob olib markazdan bevosita boshqarib turilgani ko`rishimiz mumkin. Xorazm Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Sovet xalq nozirligining ijro etuvchi, ma'muriy va qonun chiqaruvchi organi bo'lib, uning vakolati mamlakatda juda ham katta ahamiyatga ega edi.

### Foydanalingan manba va adabiyotlar ro'yxati.

1. 71-fond., Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi.
2. 72-fond., Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Xalq Nozirlar Soveti.
3. 76-fond., Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Ichki Ishlar Xalq Sovet Nozirligi.
4. 79-fond., Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Ishchi-Dehqon Inspeksiyasi Xalq Nozirligi.
5. 1505-fond., Xorazm Xalq Sovet Respublikasining Inqilobiy Xarbiy Kengash Soveti.
6. Axangarov M. Xorazm tarixi materiallari. -Urganch, 1964. -182 b.
7. Polvonov N. Xorazmda ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi (1900-1924). Toshkent: Akademik nashr, 2011. -186 b.
8. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. -Тошкент: Шарқ. 2000;

<sup>18</sup> O'zR MDA, 1505-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 4-varaq.

<sup>19</sup> O'zR MDA, 71-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 12-varaq.